

**DINIY BAG'RIKENGLIK****Mirzakarimova Mahfuza Mahmudjon qizi****Farg'ona Davlat Universiteti, Yurisprudensiya yo`nalishi 1-kurs talabasi.****maxfuzamirzakarimova007@gmail.com****Telefon raqami: 93 640 97 79****<https://doi.org/10.5281/zenodo.17348826>**

**Annotatsiya.** Ushbu maqola xalqaro huquq doirasida barcha insonlarning millatidan, tana rangidan, ijtimoiy kelib chiqishidan qat'iy nazar ularning diniy-huquqiy maqomini, ularning bu boradagi huquq va erkinliklarini himoya qilish mexanizmlarini tahlil qiladi. Maqolada, shuningdek, O'zbekistonning bu boradagi faoliyati, milliy qonunchilikdagi diniy bag'rikenglik va Yangi O'zbekistondagi diniy bag'rikenglikning dunyo mamlakatlariga namuna sifatida ko'rsatish haqida so'z yuritiladi.

**Kalit so'zlar:** Diniy bag'rikenglik, diniy qarash, diniy tashkilot, O'zbekiston Respublikasidagi diniy tashkilotlar va birlashmalar, O'zbekiston Xalqaro Islom Akademiyasi, UNESCO, Xalqaro Diniy Tashkilotlar.

**Kirish.** Diniy bag'rikenglik – bu turli diniy e'tiqodlarga mansub odamlar bir-biriga hurmat bilan munosabatda bo'lishi, ularning diniy erkinliklarini tan olishi va jamiyatda tinch-totuv yashashi demakdir. Bu, ayniqsa, O'zbekistonda "Alloh qalbimizda, yuragimizda" tamoyili asosida mamlakatning Vatan yagonaligi g'oyasini ilgari surishda muhim ahamiyat kasb etadi.

**Diniy bag'rikenglikning asosiy jihatlar:**

1. Xilma-xillikka hurmat: Har bir diniy qarash va e'tiqodning jamiyatda o'z o'rniga ega ekanligini ko'rsatadi.

2. Diniy erkinlik: Har bir fuqaroning o'z e'tiqodini erkin tanlashi va amal qilishi huquqini himoya qilish.

3. Jamiyat birligi: Turli e'tiqodlarga ega bo'lgan fuqarolarni bir-biriga qarshi emas, balki bir jamoa bo'lib yashashga undash.

4. Barqarorlik va uyg'unlik: Diniy bag'rikenglik jamiyatda ijtimoiy barqarorlikni ta'minlaydi, insonlar o'rtasidagi munosabatlarni uyg'unlashtiradi.

Shu tariqa, diniy bag'rikenglik jamiyatni birlashtirishning muhim omili, insonning ma'naviy-ruhiy kamoloti bilan bog'liq holda tushuniladi.

Diniy bag'rikenglik - turli diniy e'tiqoddagi kishilarning oliyjanob g'oya va niyatlar yo'lida hamkor va hamjihat bo'lib yashashi, kishilik jamiyati ravnaqi yo'lida xizmat qilishini anglatuvchi tushuncha. Hozirgi vaqtda bu ezgu g'oya nafaqat dindorlar, balki jamiyatning barcha a'zolari o'rtasidagi hamkorlik va hamjihatlikni nazarda tutadi. Diniy bag'rikenglik tinchlik va barqarorlikni mustahkamlash, ozod va obod Vatan qurishning muhim shartidir. Qadimdan diyorimizda buddaviylik, zardushtiylik, nasroniylik, yahudiylik, islom dinlari yonma-yon yashab kelgan, madaniyat markazlari hisoblangan shaharlarimizda masjid, cherkov, sinagogalar faoliyat ko'rsatgan. Ularda turli millat, elat va dinga mansub bo'lgan xalq, qavmlar o'z diniy amallarini emin-erkin ado etgan. Vatanimiz tarixining eng murakkab, ziddiyatli, og'ir davrlarida ham yurtimizdagi mavjud din vakillari o'rtasida diniy asosda mojarolar bo'lgan emas. Bu – yurtimiz xalqlarining Diniy bag'rikenglik borasida katta tajribaga ega bo'lganidan dalolat beradi. Hozirgi vaqtda mamlakatimizda 16 konfessiyaga mansub diniy tashkilotlar faoliyat yuritmoqda. Ularga o'z diniy marosimlarini o'tkazish va mamlakat hayotida

faol ishtirok etish uchun zarur sharoitlar yaratilgan. Bu boradagi huquqiy asoslar O'zbekiston Konstitutsiyasida, "Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida"gi Qonunda mustahkamlab qo'yilgan. Ma'lumki, dunyodagi dinlar asl mohiyatiga ko'ra ezgulik g'oyasiga asoslanadi, kishilarni halollik, poklik, mehr-shafqat, birodarlik va bag'rikenglikka da'vat etadi. Inson hayotining asl maqsadi inson va tabiatga nisbatan odilona, oqilona munosabatda bo'lish, hamisha yaxshi, savobli ishlarni amalga oshirishdan iborat. Shunday ekan, haqiqiy diniy qarashlar ortida diniy bag'rikenglik yotadi. UNESCO diniy bag'rikenglik muammosiga alohida e'tibor berib, 1995-yilni BMtning "Bag'rikenglik yili" deb e'lon qildi". O'sha yili 16-noyabrda 185 ta davlat ishtirokida Parijda "Bag'rikenglik Tamoyillari Deklaratsiyasi" qabul qilindi. Mustaqillik yillarida mamlakatimizda ham bu sohada ulkan ishlar amalga oshirildi. Bugungi kunda respublikamizda 2000 dan ziyod diniy tashkilot, shu jumladan, O'zbekiston Musulmonlar idorasi, Qoraqalpog'iston Musulmonlari qoziyati, Toshkent Davlat Islom Akademiyasi, 10 ta madrasa va 2131 ta masjid (10-yanvar,2024), Rus pravoslav cherkovi, Toshkent va O'rta Osiyo Yeparxiyasi, Pravoslav seminariyasi, Rim-katolik cherkovi, Yevangel xristian baptistlar cherkovlari ittifoqi, to'liq Injil xristianlar markazi, Xristian seminariyasi, O'zbekiston Bibliya jamiyati, Krishnani anglash jamiyati davlat ro'yxatidan o'tgan.

Diniy tashkilot – diniy ehtiyojlarni birgalikda qondirish yoki qondirishga ko'maklashish maqsadida tuziladigan va diniy marosimlarni ado etish asosida ish ko'radigan ixtiyoriy, teng huquqli va o'zini-o'zi boshqaruvchi uyushma. Ayni vaqtda u fuqarolarning vijdon erkinligini kafolatlovchi tuzilmalardan hisoblanadi. Diniy tashkilotlarning ta'limoti, tarixiy an'analari, diniy uyushmalar tuzilishida tutgan o'rni va roli turli-tuman bo'lishi mumkin. Fuqaroning diniy tashkilotga a'zoligi uning huquqiy maqomini, jumladan, boshqa shaxslar bilan tengligini cheklab qo'ya olmaydi. Diniy tashkilotlarning eng muhim belgisi – ularning o'zini-o'zi boshqarishidir, ya'ni, ular ma'muriy jihatdan davlat idoralaridan ajratilgan. Diniy tashkilotlarning faoliyati qonunlarga zid kelmasa, davlat ularning ichki aqidaviy ishlariga aralashmaydi. Ular o'z ustav (nizom) lariga muvofiq tashkil topish va ish yuritish, xodimlarni tanlash, tayinlash va almashtirish huquqiga egadirlar. Diniy tashkilotlarning ustavlari ularning tuzilishi, diniy ta'lim va faoliyatning boshqa masalalarini belgilab beradi. Ba'zi diniy tashkilotlar iyerarxiya tizimida tashkil topgan. Masalan, O'zbekiston Musulmonlar idorasi, Rus pravoslav cherkovining Toshkent va O'rta Osiyo Yeparxiyasi masjidlar, cherkovlar, o'quv yurtlari, mahalliy tashkilotlar va o'z boshqaruv organlariga ega.

O'zbekiston Respublikasining "Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida" gi (1998) qonunida ta'kidlanganidek, O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining dinga e'tiqod qilish, ibodat, rasm-rusum va marosimlarni birgalikda ado etish maqsadida tuzilgan ko'ngilli birlashmalari (diniy jamiyatlar, diniy o'quv yurtlari, masjidlar, cherkovlar, sinagogalar, monastirlar va b.) diniy tashkilotlar deb e'tirof etiladi. Tegishli ustav (nizom) asosida faoliyat yurituvchi Respublika diniy uyushmalari O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan ro'yxatga olinadi. Viloyat, tuman va shahar, shaharcha va qishloq hududida bo'lgan diniy tashkilotlar tegishli viloyatlar, shuningdek, Toshkent shahar hokimligi adliya boshqarmalari tomonidan ro'yxatga olinadi. Diniy tashkilot ro'yxatga olingandan so'ng u yuridik shaxsga aylanadi. Diniy tashkilot yuridik shaxs sifatida qonunlarga va o'z nizomiga muvofiq holda huquqlardan foydalanadi hamda majburiyatlarni o'taydi. Diniy tashkilot rahbarining tashkilot ustavini ro'yxatdan o'tkazishdan bo'yin tovlashi qonun hujjatlariga muvofiq javobgarlikka olib keladi. Ro'yxatdan o'tmagan diniy tashkilotlarning faoliyat ko'rsatishiga yo'l qo'ygan

mansabdor shaxslar qonun hujjatlariga muvofiq javobgar bo'ladilar. Diniy tashkilotlar faoliyati 2 holda: ular o'z nizomlariga muvofiq tugatilganda va "Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida"gi qonun qoidalar yoki boshqa qonun hujjatlariga rioya qilinmaganda to'xtatiladi. Diniy tashkilot faoliyatini to'xtatish haqidagi qaror O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Adliya vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimligining adliya boshqarmalari tomonidan qabul qilinadi. Diniy tashkilotlar qabul qilingan qaror ustidan xalq sudiga shikoyat qilish huquqiga ega, shikoyat fuqarolik ishlarini yurituvchi sud tomonidan ko'rib chiqiladi. Diniy tashkilotlar tasarrufida binolar (masjidlar, cherkovlar, sinagogalar, kirxalar, monastirlar, ibodatxonlar va b. inshootlar), i.ch. korxonlari (bosmaxonlar, fermerlar, badiiy-tikuv sexlari va hakoza), ijtimoiy va xayriya obyektlari (yetimxonalar, qariyalar uylari va hakoza), diniy anjomlar (diniy kitoblar, ikonalar, shamlar va hokazo), ular faoliyatini ta'minlash uchun zarur transport vositalari, pul va b. mulklar bo'lishi mumkin. Diniy tashkilotlarning mulkiy huquqi qonun bilan muhofaza qilinadi.

16-noyabr – Xalqaro bag'rikenglik kuni munosabati bilan an'anaviy tarzda anjuman o'tkazildi. Ushbu xalqaro anjumandan ko'zlangan asosiy maqsad O'zbekistonda tinchlik, osoyishtalik omillaridan biri bo'lgan diniy bag'rikenglik, dinlararo totuvlik va konfessiyalararo hamjihatlikni mustahkamlash borasidagi ishlarni o'rganish, istiqboldagi vazifalarni tahlil qilish, mavjud muammolarni aniqlash va shu yo'nalishda o'z yechimini kutayotgan masalalarni hal etish bo'yicha takliflar ishlab chiqishdan iborat.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti maslahatchisi Muzaffar Komilov, YUNESCONing O'zbekistondagi vakolatxonasi rahbari Sara Noshadi, O'zbekiston Respublikasi Bosh Vaziri o'rinbosari Zulayho Mahkamova, Din ishlari bo'yicha qo'mita raisi Sodiqjon Toshboyev, inson huquqlari bo'yicha milliy markaz direktori Akmal Saidov, Millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do'stlik aloqalari qo'mitasi raisi Rustam Qurbonov, O'zbekiston musulmonlari idorasi raisi, muftiy, Shayx Nuriddin Holiqnazar va boshqalar millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglik masalasi bugungi globallashuv davrida tobora dolzarb ahamiyat kasb etayotganini ta'kidladi.

Ma'lumki, YUNESKO tomonidan dunyoda tinchlik, dinlar va konfessiyalararo muloqotni ta'minlash, millatlar va elatlar o'rtasida hamkorlikni rivojlantirish borasida bir qator ishlar amalga oshirilib, hozirda bag'rikenglikka oid 70 dan ziyod xalqaro hujjatlar qabul qilingan. Xususan, 1995-yil 16-noyabrda Parijda YUNESKO Bosh konferensiyasining 28-sessiyasida e'lon qilingan "Bag'rikenglik tamoyillari deklaratsiyasi" ana shunday hujjatlar sirasidan. BMT Bosh Assambleyasining qaroriga ko'ra, 1996-yildan buyon mazkur sana butun dunyoda "Xalqaro bag'rikenglik kuni" sifatida nishonlanadi.

Diniy bag'rikenglik masalasi bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2017-yil 19-sentabrda BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida "Ma'rifat va diniy bag'rikenglik" deb nomlangan maxsus rezolyutsiyani qabul qilish tashabbusi bilan chiqdi va jahon hamjamiyatining diqqatini tortdi. Mazkur hujjat ko'p o'tmay BMTning 73-sessiyasida a'zo davlatlar tomonidan yakdillikda qabul qilindi va 50 dan ortiq mamlakat bu rezolyutsiyaga hammuallif bo'lish istagini bildirdi.

2023-yil 19-sentabr kuni esa BMT Bosh Assambleyasida Prezidentimiz keying yillarda O'zbekistondagi keng ko'lamli islohotlar, global va mintaqaviy eng dolzarb masalalar yechimiga oid qator tashabbuslarni ilgari surdi.

Din va diniy bag'rikenglik bilan bog'liq bo'lgan O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi moddalari: 19-modda: O'zbekiston Respublikasida barcha fuqarolar bir xil huquq va erkinliklarga ega bo'lib, jinsi, irqi, millati, dini, e'tiqodi, ijtimoiy kelib chiqishi, ijtimoiy mavqeidan qat'iy nazar qonun oldida tengdirlar. 35-modda: Hamma uchun vijdon erkinligi kafolatlanadi. Har kim xohlagan dinga e'tiqod qilish yoki hech qaysi dinga e'tiqod qilmaslik huquqiga ega. Diniy qarashlarni majburan singdirishga yo'l qo'yilmaydi. 75-modda: Diniy tashkilotlar davlatdan ajratilgan hamda qonun oldida tengdirlar. Davlat diniy tashkilotlarning faoliyatiga aralashmaydi.

Davlat qonunda belgilangan tartibda faoliyat ko'rsatayotgan diniy tashkilotlar faoliyatining erkinligini kafolatlaydi.

**Xulosa.** Huquqiy, dunyoviy, demokratik va ijtimoiy davlat bo'lmish Yangi O'zbekistonni barpo etish siyosatini qat'iy davom ettirishda "Inson Qadri va manfaatlari uchun" degan ezgu g'oya asosida demokratiya va adolat tamoyillarini mustahkamlash bo'yicha tub ijobiy o'zgarishlar dadil ilgarilab bormoqda. Yangilangan Konstitutsiyada millati, tili va dinidan qat'iy nazar, barcha fuqarolarning tengligi, inson huquqlari, so'z va vijdon erkinligi prinsiplariga sadoqat yana bir bor tasdiqlandi. Shu huquqiy asosda qabul qilingan "O'zbekiston – 2030" strategiyasi BMTning Barqaror rivojlanish maqsadlariga uyg'un ekanini ham ta'kidlash zarur.

Xalqaro anjuman qatnashchilari yakdillik bilan e'tirof etganlaridek, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan so'nggi paytlarda ayrim mamlakatlarda ko'zga tashlanayotgan diniy toqatsizlik, islomofobiya holatlariga yo'l qo'ymaslik va jahon miqyosida dinlararo bag'rikenglik va hamjihatlik g'oyalarini keng targ'ib etish maqsadida O'zbekistonda YUNESCO shafeligida Dinlararo muloqot va bag'rikenglik xalqaro markazini tashkil etish taklif qilindi. Zero, bag'rikenglik o'zbek xalqi ma'naviyati va madaniyatining ajralmas qismidir.

Mamlakatimizda istiqomat qiladigan 130 dan ortiq millat va elatning o'zaro totuvligi, rasman ro'yxatdan o'tgan 16 diniy konfessiya vakillari o'rtasida bag'rikenglik munosabatlarini yanada mustahkamlash, diniy bag'rikenglik tamoyillarini qaror toptirishga ham alohida e'tibor qaratilmoqda.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi – Toshkent, 2023
2. "Taraqqiyot Strategiyasi" Markazi [info@strategy.uz](mailto:info@strategy.uz)
3. Dinshunoslik asoslari. J.Jo'rayev, L.Abdullayev. Toshkent – 2013
4. O'zbekiston Musulmonlari idorasi <https://www.muslim.uz>
5. O'zbekiston Milliy Axborot Agentligi <https://uza.uz>
6. Soff.uz <https://www.soff.uz>
7. Wikipedia <https://uz.wikipedia.org>
8. Zenodo <https://zenodo.org>